

QASDDAN BADANGA SHIKAST YETKAZISH JINOYATLARINI OLDINI OLISHDA YO'L QO'YILAYOTGAN KAMCHILIKLAR VA ULARNING ASOSIY SABABLARI

Tursunova Mukarramxon Dilshodjon qizi

O'zbekiston Respublikasi

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi kursanti

E-mail:tursunovamukarramxon2@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarining mohiyati, ularni oldini olishda uchrayotgan kamchiliklar va ularning yuzaga kelish sabablari yoritilgan. Jamiyat xavfsizligi va huquqiy tartibotni ta'minlashda ushbu jinoyatlarni bartaraf etish mexanizmlarini kuchaytirish muhim hisoblanadi. Shu bois maqolada profilaktika choralari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat, qasddan badanga shikast yetkazish, profilaktika, huquqni muhofaza qilish, ijtimoiy xavfsizlik, huquqbuzarlik.

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность преступлений, связанных с умышленным причинением телесных повреждений, недостатки в их предотвращении и причины их возникновения. Обеспечение общественной безопасности и правопорядка требует усиления механизмов устранения таких преступлений. В статье приведены меры профилактики, существующие проблемы в деятельности правоохранительных органов и рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: преступление, умышленное причинение телесных повреждений, профилактика, правоохранительные органы, социальная безопасность, правонарушение.

Annotation: This article examines the essence of intentional bodily injury crimes, the shortcomings in their prevention, and the reasons behind their occurrence. Ensuring public safety and maintaining legal order require strengthening mechanisms for eliminating such crimes. Therefore, the article presents preventive measures, existing problems in the activities of law enforcement agencies, and recommendations for addressing them.

Keywords: crime, intentional bodily injury, prevention, law enforcement, social security, offense.

Insonning hayoti va sog'lig'i eng oliy ijtimoiy qadriyat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasida^[1] inson hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini davlat tomonidan himoya qilinishi belgilab qo'yilgan. Shuning uchun shaxsga qarshi qaratilgan har qanday tajovuz — jinoyat huquqining eng og'ir turlaridan biri sifatida baholanadi. Jamiyat taraqqiyoti va inson huquqlarini himoya qilishning asosiy sharti bu — qonun ustuvorligini ta'minlashdir. Inson salomatligi va hayoti huquqiy jihatdan eng oliy qadriyat hisoblanadi. Shu bois qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlari jinoyat huquqida alohida e'tibor qaratiladigan toifadandir. Ushbu jinoyatlar nafaqat jabrlanuvchining sog'lig'iga zarar yetkazadi, balki ijtimoiy muhitda beqarorlik va xavotir kayfiyatini yuzaga keltiradi.

Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda shaxsga qarshi zo'rvonlik holatlari, ayniqsa, oila, maishiy yoki ichkilikbozlik zaminida sodir etilayotgan tan jarohati yetkazish holatlari soni kamaygani yo'q, aksincha, kundan kunga ortib bormoqda. Shu sababli mazkur jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi, huquqiy belgilari, sud amaliyoti va oldini olish choralari ilmiy jihatdan chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Maqolaning maqsadi — qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish jinoyatining jinoyat-huquqiy tarkibini tahlil qilish, sud amaliyotidagi kamchiliklarni ko'rsatish va mazkur jinoyatni oldini olish borasida takliflar ishlab chiqishdir.

Bu maqolaning obyekti sifatida shaxsga qarshi jinoyatlar, xususan, qasddan badanga tan jarohati yetkazish bilan bog'liq sud amaliyoti tanlanadi. Ishning predmeti esa — mazkur jinoyatning huquqiy tarkibi, amaliy qo'llanilishi va ijtimoiy asoslarini o'rganishdan iboratdir.

Sog'liqqa qarshi jinoyatlar tizimidagi o'rni.

Jinoyat huquqida shaxsga qarshi jinoyatlar bo'limining eng muhim toifalardan biri — sog'liqqa qarshi jinoyatlar hisoblanadi. Chunki ular insonning eng oliy qadriyati — hayoti va sog'lig'iga bevosita tajovuz qiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining Maxsus qismning birinchi bo'lim **“Shaxsga qarshi jinoyatlar”** bo'lib, II bobini **“Sog'liqqa qarshi jinoyatlar”** deb nomlangan, 104-moddadan 111-moddagacha bo'lgan normalarni o'z ichiga oladi.^[2]

Shaxsga qarshi jinoyatlar tizimida ushbu turdagi jinoyat o'limga olib kelmagan, ammo inson sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazgan holatlar qatoriga kiradi. Shu bois, u “og'irlik darajasi bo'yicha o'rtacha og'ir jinoyatlar” toifasiga mansubdir.

Qasddan shikast yetkazish deganda — shaxs tomonidan ongli ravishda boshqa bir insonning sog'lig'iga zarar yetkazishga qaratilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.^[3] Bu jinoyatda qasddanlik mavjud bo'lib, jinoyatchi o'z harakati

¹ <https://lex.uz/docs/-6445145>

² <https://lex.uz/docs/-111453>

³ https://uz.wikipedia.org/wiki/Badanga_shikast_yetkazish

oqibatida jabrlanuvchining sog'lig'iga zarar yetishini biladi va shu oqibatni istaydi yoki bunga ongli ravishda yo'l qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi JKda badanga yetkazilgan shikastning og'irlik darajasi quyidagicha tasniflanadi:

- ❖ Og'ir tan jarohati (JK 104-modda);
- ❖ O'rtacha og'ir tan jarohati (JK 105-modda);
- ❖ Yengil tan jarohati (JK 109-modda).

Qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarining huquqiy mohiyati shundan iboratki:

- ◆ Qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi maxsus qismida alohida bo'lim sifatida tartibga solingan bo'lib, insonning sog'lig'iga bevosita zarar yetkazishga qaratilgan harakatlarni o'z ichiga oladi.
- ◆ Qonunchilikda og'ir, o'rtacha va yengil shikast yetkazish alohida moddalarda ko'rsatilgan. Masalan, og'ir shikast insonning hayotiga xavf tug'diradi, uzoq muddat davolanishni talab qiladi.
- ◆ Mazkur jinoyatlarning asosiy obyekti inson salomatligi bo'lsa, qo'shimcha obyekti jamiyatda xavfsizlik va osoyishtalikdir.
- ◆ □ Ushbu jinoyatlarning ko'payishi jamiyatda huquqiy madaniyatning pasayishidan, iqtisodiy-ijtimoiy muammolardan va ma'naviy bo'shliqlardan dalolat beradi.

Qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarini oldini olishdagi mavjud muammolar:

1. □ Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jinoyatlarning profilaktikasiga yetarli e'tibor berilmayapti.
2. □ Mahalla, oila va ta'lim muassasalari bilan hamkorlik tizimi zaif.
3. □ Huquqiy targ'ibot ishlari ko'proq formal xususiyatga ega bo'lib, amalda samarasi past.

Jinoyatchilikning asosiy omillari esa:

- ishsizlik;
- ichkilikbozlik;
- oilaviy nizolar – yetarli darajada bartaraf etilmayotganligi.

Ushbu kamchiliklarning asosiy sabablari:

- **Iqtisodiy sabablar:** ish o'rinlarining yetishmasligi, moliyaviy qiyinchiliklar jinoyatlarning kuchayishiga olib kelmoqda.
- **Psixologik sabablar:** oilaviy nizolar, stress, alkohol va giyohvandlik moddalarini iste'mol qilish, ikkinchi xotin olish yoki shar'iy nikoh asosida oila qurish, foydalanish.

□ **Huquqiy sabablar:** aholining huquqiy bilim darajasining pastligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish madaniyatining sustligi hamda mahalla yettiligining nizoli oilalarni aniqlash va ular bilan profilaktika ishlarini olib borishining yetarli emasligi.

□ **Tashkiliy sabablar:** huquqni muhofaza qiluvchi organlarda profilaktik tadbirlarning tizimliliigi, aholiga kerakli tushunchalarni yetkazib berishda oqsoqliklar borligi va samaradorligi yetarli emas.

Rivojlangan mamlakatlarda mediatsiya institutidan keng foydalaniladi, bu esa nizolarni jinoyat darajasiga yetmasdan hal etishga yordam beradi.

- ✓ □ AQShda ijtimoiy xizmatlar va psixologik yordam markazlari keng joriy qilingan.
- ✓ □ Yevropa mamlakatlarida yoshlarni huquqiy tarbiyalash dasturlari maktab davridan boshlab kuchli yo‘lga qo‘yilgan.
- ✓ □ O‘zbekiston sharoitida ham ushbu tajribalarni qo‘llash imkoniyatlari mavjud.
 - Mahalla va ta’lim muassasalari ishtirokini kuchaytirish orqali jinoyatlarning oldini olish.
 - Huquqiy madaniyatni oshirish maqsadida keng ko‘lamli targ‘ibot kompaniyalarini amalga oshirish.
 - Mediatsiya va boshqa muqobil nizolarni hal qilish mexanizmlarini rivojlantirish.
 - Bandlik siyosatini kuchaytirish, yoshlar uchun ish o‘rinlarini yaratish.
 - Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda profilaktika tizimini modernizatsiya qilish.

Xulosa qilib aytganda, qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlari jamiyat barqarorligiga jiddiy tahdid soluvchi omillardan biridir. Ularning kelib chiqish sabablari turli – iqtisodiy, psixologik va huquqiy omillarga borib taqaladi. Shu bois, ushbu jinoyatlarni samarali oldini olish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar, fuqarolik jamiyati institutlari va aholining o‘zi hamkorlikda ish olib borgandagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. – Toshkent, 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining Qarori “Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 27.06.2007-yildagi 6-son.
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/qasddan-badanga-og-ir-yoki-o-rtacha-og-irlikdagi-tan-jaroxati-yetkazish-jinoyatlarini-kvalifikatsiya-qilish-masalalari>.

5. <https://cyberleninka.ru/article/n/qasddan-badanga-shikast-yetkazish-jinoyatlarini-tergov-qilishda-ilgari-surilgan-versiyalarni-tekshirishning-ayrim-masalalari>.
6. <https://maktabgacha-va-maktab-talimi.jurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/3346/2649>.